

**ЖАНУБИЙ ОРОЛБЎЙИДА МЕЪМОРЧИЛИК БИЛИМЛАРИ ВА
КАСБИЙ АНЪАНАЛАР ЭВОЛЮЦИЯСИГА ДОИР ТАДҚИҚОТЛАР
ИССЛЕДОВАНИЯ ЭВОЛЮЦИИ АРХИТЕКТУРНЫХ ЗНАНИЙ И
ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ТРАДИЦИЙ В ЮЖНОМ ПРИАРАЛЬЕ
STUDIES ON THE EVOLUTION OF ARCHITECTURAL KNOWLEDGE
AND PROFESSIONAL TRADITIONS IN THE SOUTHERN ARAL REGION**

Babajanov Ulug‘bek Salayevich

Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

babajanovulugbek56@gmail.com

93756 0727

Annotatsiya: *Amudaryo sohili o‘ng hududida xo‘jalikni turli tarmoqlarini kundalik faoliyatlarida olib borganlar. Ajdodlarimiz kulolchilik sohasida turli vazifani bajaradigan idish-tovaqlarni qo‘lda yasab, ular kundalik faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Sho‘raxon va Sulton Uvays tog‘i oralig‘i geografik manzarasini ask ettirgan sug‘orilish qo‘liqlari, ularda oyoq bosilsa musiqa sehrli jaranglari tevarak-atrofini qamrab olishi tabiiy hol. Maqolada Amudaryo o‘ng va so‘l sohili aholi turar-joylarida loy me‘morchilik bilimi tahlil amalga oshirilgan.*

Аннотация: *В своей повседневной деятельности они занимались различными отраслями хозяйства на правом берегу реки Амударья. Наши предки использовали глиняную посуду для изготовления посуды, которая выполняла различные функции и играла важную роль в их повседневной жизни. Географический ландшафт между горой Шурагон и горой Султан Увайс усеян остатками ирригационных сооружений, и вполне естественно, что когда вы ступаете на них, окрестности окутывают волшебные звуки музыки. В статье анализируется изученность глиняной архитектуры в поселениях правого и левого берегов Амударья.*

Abstract: *In the right bank of the Amu Darya, various branches of the economy were carried out in their daily activities. Our ancestors made various types of pottery by hand, which played an important role in their daily activities. The remains of irrigation canals adorn the geographical landscape between the Shurakhon and Sultan Uvays mountains, and when you step on them, the magical sounds of music envelop the surroundings. The article analyzes the knowledge of clay architecture in the settlements of the right and left banks of the Amu Darya.*

Kalit so‘zlar: *xo‘jalik sohalari, hunarmandchilik, kundalik turmush tarzi, loy me‘morchilik bilimi, Ko‘zaliqir, Qalaliqir-1, Tagisken.*

Ключевые слова: *отрасли экономики, ремесла, повседневная жизнь, знание глиняной архитектуры, Козалыкыр, Калалыкыр-1, Тагискен.*

Keywords: *economic sectors, crafts, daily life, knowledge of clay architecture, Kozaliky, Qalalikir-1, Tagisken.*

Tarixiy davr, uning turli bosqichlarda ziroatkor hayot va ijod uyg'unligida vujudga kelib shakllangan bilimni loy xaykalchalar va sopol parchalarda aks ettirgan muzikant ayollarni aks ettirganliklari bois, ajdodlarimizning binokorlik bilimi tarixini yoritish maqsad qilingan.

O'rta Osiyo markazida joylashgan O'zbekiston xududi yuzasi tuzilishi jixatidan bir-birini takror qilmaydigan bir qancha tabiiy-iqtisodiy regionlardan iborat. Xorazm vohasi biri vatanimizning shimoli-g'arbida joylashgan, uning geografik o'rni, iqlim sharoiti, antropogen landshafti va ekologiyasi ta'sirida tabiiy resurslardan foydalanib, ilk kasbi-korlarini o'z manfaatlariga xizmat qildirish barobarida olib borgan etnik jarayonlar tarixi uchun.

S.P.Tolstov rahbarligida Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlarining yarim asrdan ziyod Amudaryo o'ng va so'l sohili xududlarida keng qamrovli tarzda olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijalari ahamiyati beqiyos. S.P.Tolstov, A.V.Vinogradov, Ye.A.Vinogradova asarlarida Xorazm xududida faoliyat olib borgan ajdodlarimiz yer sathi qurilgan chaylalarda istiqomat qilib, jamiyat iqtisodiy asosi ovchilik va termachilik sohalari jamiyat iqtisodiy tizimini hosil qilgan [1.2.3.4]. Mil avv 1U-U ming yilliklarda Amudaryo faoliyati natijasida Xorazm tekisligi ikki qismga bo'lingan, ularni geologik asosi bir, ammo gidrologik tuzilishi jihatida farqlanish xolatini kuzatish mumkin. Aynan shu tarixiy davrdan Sul-ton Uvays tog'i etaklarida ovchilik va termachilik olib borgan urug' jamoalari aholi soni o'sganligi bois, tabiiy-iqtisodiy xududlarga ko'nikkan doirasida chiqishni taqoza etgan. Burli ovchilari Oqchadaryo havzasida Yonboshqala balandligi atrofida mavjud bo'lgan suv havzalari sohili etaklariga ulanib ketgan balandlik yon qismiga yog'och ustunli turar-joyni qurib, notanish geografik xududda etnik munosabatlarni olib borgan. Xorazm ekspeditsiyasi Jonbos-4 manzilgohida qazishma ishlarini olib borishi jarayonida tosh qurollari bilan birga, xilma-xil bezaklar tasviri berilgan kulolchilik sohasini kashf etib, kundalik faoliyati asosini tashkil qilgan.

Amudaryo sohili o'ng xududida xo'jalikni turli tarmoqlarini kundalik faoliyatlarida olib borganlar. Ajdodlarimiz kulolchilik sohasida turli vazifani bajaradigan idish-tovaqlarni qo'lda yasab, ular kundalik faoliyatlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Sho'raxon va Sul-ton Uvays tog'i oralig'i geografik manzarasini ask ettirgan sug'orilish qoliqlari, ularda oyoq bosilsa musiqa sehrli jaranglari tevarak-atrofini qamrab olishi tabiiy hol. S.P. Tolstov, M.A. Itina, Ya.G'.G'ulomov tadqiqotlari natijalaridan ma'lumki, turar-joylar neolitdan tortib, temir davri oxirgi bosqichiga qadar yarim yerto'la shaklda bo'lgan[5.6.7.]. Xorazm ekspeditsiyasi Sariqamishbuyi havzasi Amudaryo Dovdon

irmog'i o'rta qismida shimoliy tomon chiqarilgan Charmanyob magistral sug'orilish inshooti tizimida loy binorlik bilimida mil.avv-gi VII asr oxiri – VI asr birinchi yarmida Ko'zaliqir xamda Qalaliqir yodgorliklari qad ko'tarilgan(25,70 gektar)[8.9.10.]. Mazkur yodgorliklar qo'shni xududlarga binokorlik bilimi tarqalish markazi bo'lgan. Amudaryo o'ng sohili xududlarida o'rnashgan aholi yog'och ustunli yarim yerto'lalarda istiqomat qilib, xunarmandchilikni to'qimachilik, kulolchilik sohalarini rivojlantirganlar. Umuman, arxeologik adabiyotlarda Janubiy Orolbo'yi xududida binokorlik uslubida qurilgan yodgorliklar to'g'risida turli fikrlarni kuzatish mumkin:

Umuman olganda, Janubiy Orolbo'yi xududida so'nggi tosh davridan ochiq tipdagi manzilgoh (Burli-3), aholi soni oshganligi munosabati bilan Sulton Uvays tog'i etagiga ulanib ketgan Yonboshqala balandligi atroflari o'zlashtirilishi munosabati bilan yer sathiga tevarak-atroflarida qurilish ashyolari bilan sun'iy turar-joylarni qurilishida o'zgarishlari qayd qilindi. II ming yillikdan-mil.avv.VI asr so'nggi choragigacha yer to'la shaklda turar-joylar qurilishi uslublari yetakchi bo'lganligi izohlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Толстов С.П. Древний Хорезм-М. МГУ 1948-С. 65-69.
- 2.Виноградов А.В.Неолитические памятники Хорезма-М.:Наука, 1968-С. 170.
- 3.Виноградов А.В.Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья-М.:Наука, 1981. Вып XIII- С.78-89.
- 4.Виноградова Е.А.Первые палеолитические находки в Султануиздаге //Приаралье в древности и средневековье-М.ИВЛ.РАН, Наука, 1998-С. 74-77.
- 5.Итина М.А. История Племен Южного Приаралья-//ТрХАЭЭ-М, Наука. 1977 Т-Х-С. 44-108.
- 6.Итина М.А. Поселение Якке-Парсан-2 (Раскопки 1958-1959 гг//МХЭ-М.:Наука, 1963- № 6-С. 149-152 рис 72.
- 7.Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг суғорилиш тарихи-Тошкент, Фан, 1959 - Б. 53-56.
- 8.Толстов С.П.По древним дельтам Окса и Яксарта-М.:Наука, 1962 -С. 96-101.
- 9.Рапопорт Ю.А. Лапиров-Скобло М.С. Раскопки дворцового здания на городище Калалы-гыр-Л //МХЭ,-М.:Наука, 1963, Вып-6-С. 141-156.
- 10.Вишневская О.А, Рапопорт Ю.А. Городище Кюзели-гыр. К вопросу о раннем этапе истории Холрезма //ВДИ-М.:Наука, 1997 № 2-С. 150-173.
- 11.Массон В.М. Дренвнземледельческая культура Маргианы //МИА-М.:Наука, 1959 № 73.-С.54.

12. Воробьева М.Г. Дингильдже. Усадьба I тысячелетия до.н.э в древнем Хорезме //МХЭ-М.:Наука 1973. Вып-9-С. 38.

13. Толстов С.П. Итина М.А. Саки Низовьев Сырдарьи //По материалам Тагискена //СА-М.:Наука 1966 № 2-С. 151-175.

